



KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI TAKOMILLASHTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi

Mamlakatimizda inson resurslarini rivojlantirish orqali ichki va tashqi mehnat bozorini isloh qilish, kambag‘allikni qisqartirish uchun bandlikning progressiv shakllarini tatbiq etish, sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish hamda xalqaro standartlar asosida munosib mehnat tamoyillarini keng joriy qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar izchilligini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan qarorga muvofiq quyidagilar nazarda tutilgan.

Birinchidan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) bevosita mahallalarda ishlash tizimi joriy etilmoqda. Xususan:

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga o‘tkazilmoqda hamda vazirlikning hududiy bo‘linmalarida “loyihaviy yondashuv” tamoyili asosida ish tashkil etilib, xodimlar aholi va tadbirkorlar bilan bevosita ishlavchi loyiha guruhlariga (front ofis) va bo‘linma umumiy faoliyatini tahlil qiluvchi guruhlariga (bek ofis) bo‘linadi.

Vazirlikning tuman bo‘limlari, tuman hokimligi hamda MFY o‘rtasida mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha uch tomonlama “mahalla shartnoma”lari tuziladi. Bunda, ushbu shartnomada Vazirlik tuman bo‘limi va hokimiyat — infratuzilmani yaxshilash, aholining daromad manbaini oshirishga sharoit yaratishga, mahalla raisi — aholini ishga jalb qilish, hududini obodonlashtirish, jinoyatchilikni kamaytirish kabi vazifalarga mas‘ul bo‘ladi.

Loyihaviy yondashuv asosida ishlar quyidagicha tashkil etiladi:

og‘ir ahvoldagi 1000 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash (elektr energiyasi, internet, suv ta‘minoti) uchun mablag‘lar Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar asosida ajratiladi;

Vazirlik huzurida yuqori natijaga erishgan 50 nafar hokim yordamchilaridan iborat “loyiha menejerlari” guruhi tashkil etiladi hamda hokim yordamchisi ko‘rsatkichi past tumanga birlashtiriladi va ular o‘z tajribasini shu mahallalarda joriy etadi;

100 ta eng namunaviy mikroloyihalar katalogi yaratiladi hamda hokim yordamchilari orqali barcha hududlarda ommalashtiriladi;

2025-yilda 167 ta tumanning jami 6680 gektar maydonida “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha namunaviy loyihalar amalga oshiriladi;

2026-yilda har bir viloyatda kamida 2 tadan ko‘p qavatli kompleks sanoat markazlarini barpo etish va tadbirkorlarni joylashtirish loyiholari amalga oshiriladi;

sanoat kirib bormagan mahallalarda 2025-yilda 1000 ta, 2026-yilda 2000 ta qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va kichik ishlab chiqarish loyiholari ishga tushiriladi;

har yili kamida 500 ta hunarmandchilik va kasanachilik loyiholari mahallaning o‘zida joriy etiladi;

2025-yilda 2000 ta mahallada, 2026-yilda qolgan 2122 ta mahallada salohiyatli tadbirkorlar, eksportyorlar va brokerlar bilan hamkorlikda yetakchi tadbirkorlarning faoliyati yo‘lga qo‘yiladi (hozirda 5323 ta mahallada mavjud);

ixtisoslashgan mahallalar soni har yili 10 foizga oshirib boriladi;

har yili 50 ming nafar o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarni bosqichma-bosqich kichik biznes subyektlariga aylantirish choralari ko‘riladi.

Ikkinchidan, bandlikni oshirish va kasbga tayyorlashda zamonaviy usullar tatbiq qilinadi.

Ish beruvchilarning ehtiyojini o‘rganish asosida ishsizlarni kasblarga maqsadli o‘qitishni inobatga olgan holda kasbiy ko‘nikmalar markazlari tashkil etiladi. Bunda:

markazlarda ish beruvchilar talabiga moslashtirilgan ekspress-kurslar tashkil etiladi hamda amaliy ko‘nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish tizimi yaratiladi;

markazlarda xalqaro tan olingan dasturlar joriy qilinadi va xorijda tan olinadigan sertifikatlar berilishi yo‘lga qo‘yiladi;

o‘qitish jarayoniga xususiy sektor keng jalb qilinadi hamda ishsizlarni kasb va xorijiy tilga

davlat buyurtmasi asosida o‘qitish tashkil etiladi. Bunda:

Vazirlik talab yuqori bo‘lgan kasb va xorijiy tillar hamda o‘qitganlik uchun to‘lanadigan davlat granti miqdorini belgilaydi;

ishsizlarga kasb va xorijiy tilga o‘qitadigan davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlarini mustaqil tanlash huquqi beriladi;

fuqaro tanlagan ta‘lim tashkilotiga grant mablag‘larining 50 foizi o‘qish boshlanishidan oldin, qolgan qismi yakuniy imtihon muvaffaqiyatli topshirilgach to‘lab beriladi;

kasbiy ko‘nikmalar markazlari binolari o‘quv kurslari tashkil qilish uchun xususiy sektorga tekis foydalanishga yoki uzoq muddatli ijaraga beriladi;

Vakansiyalar platformasi modernizatsiya qilinib, ish beruvchilar va ish izlovchilarning “shaxsiy profili” yaratiladi hamda yillik 500 ming nafar fuqaroning doimiy ish bilan ta‘minlanishiga erishiladi;

fuqarolarga ishga joylashish yo‘llanmasini eksterritorial tartibda istalgan bandlik organlari orqali olishga ruxsat beriladi;

xususiy rekrutng va HR kompaniyalar bilan hamkorlik qilish va ular taklif qilayotgan bo‘sh ish o‘rinlariga fuqarolarni joylashtirish choralari ko‘riladi.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni joriy qilish natijasida:

2024-yil yakuniga qadar 500 ming, 2025-yilda 1 million aholi kambag‘allikdan chiqariladi.

Bunda, kambag‘al aholining 410 ming nafari doimiy ish bilan ta‘minlanadi, 170 ming nafari kasbga o‘qitiladi va 430 ming nafari tadbirkorlikka jalb qilinadi.

2025-yil yakuniga qadar aholining kambag‘allik darajasi 6 foizgacha qisqartiriladi.

Joylarda ishini “loyihaviy yondashuv” asosida tashkil qilish hamda tizimni to‘liq raqamlashtirish hisobiga norasmiy bandlik ulushi har yili 1 million nafarga kamaytiriladi.

Ishsizlarni manzilli aniqlash, ularni yuqori daromadli kasblarga tayyorlash va ishga joylashtirishning yaxlit tizimi yaratiladi.

O‘ZA

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI



Mazkur maqola O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

HAR BIR YOSH O‘Z OVOZIGA EGA

Saylov kampaniyasi boshlanganiga 2 oydan, deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti startiga esa 10 kundan oshayotir. Mana shu yurt taqdiri, demakki, o‘z kelajagiga befarq bo‘lmagan bir faol sifatida shu yil 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari sayloviga doir ba’zi mulohazalarimni bo‘lishmoqchiman.

Avvalo, mamlakatimizda saylov jarayoni yildan yilga takomillashib, saylovga doir qonunchiligimiz, saylovning xalqaro huquq va standartlariga uyg‘un holda o‘tayotganini alohida ta’kidlash o‘rinli. Buni ortiqcha izohlashning zarurati bo‘lmasa kerak. Binobarin, saylovlarining yuqori saviyada o‘tkazilayotganini nafaqat xalqaro kuzatuvchilarning xulosalari, balki jamiyatimizda mazkur siyosiy jarayonga munosabat o‘zgargani, saylovchilarning daxldorligi ortib borayotgani ham tasdiqlaydi.

Davomi 2-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMIGA RIOYA ETISH ISHIMIZDA UNUM VA SIFAT BO‘LISHINI TA‘MINLAYDI

Eng avvalo, har bir rahbar ish faoliyatida, kundalik turmushida mas‘uliyatni his etsa, kasbga fidoyilik, bilim va malakasini ishga solib, amalga oshirilayotgan islohotlarning faol tashabbuskori va ijrochisiga aylansagina intizom o‘z so‘zini aytadi, albatta. Shundagina ishda unum, islohotlarda natija bo‘ladi.

Surxondaryo bugun har jihatdan rivojlanib, kechagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan viloyatdan sanoati rivojlanib borayotgan, barcha sohalarida yangilanish va bunyodkorlik sari yuz tutib, xalqaro munosabatlarda ham peshqadam hududga aylanib bormoqda. Erihilayotgan bu kabi ulkan yutuq va natijalar, qo‘lga kiritilayotgan

marralarga ijro intizomiga to‘laqonli amal qilishni viloyatda faoliyat yuritayotgan har bir mas‘ul rahbar o‘zining pirovard maqsadi deb bilayotgani asos bo‘lyapti. **Ijro intizomi** shaxsiy mas‘uliyat, “temir intizom”, kasbga bo‘lgan mehr va professional mahoratdir.

Bugungi siyosat tufayli erishilayotgan natijalarning tub negizida yotgan eng

muhim va dolzarb masala ham, shubhasiz, ijro intizomiga so‘zsiz rioya etish sanaladi. Qolaversa, qabul qilinayotgan yangi qonun, farmon, qaror va O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan islohotlarning hayotga tatbiq etilishida, aholining farovon turmushini ta‘minlash, barcha sohalarida ilg‘or natijalarga erishishda ham ijro intizomi muhim o‘rin egallaydi.

Izchil islohotlar hamda qonun hujjatlari ijrosini o‘z vaqtida, munosib tarzda real hayotga tatbiq etish **har bir rahbar va xodimning burchi, vazifasi** hisoblanadi.

Prezidentimizning 2021-yil 10 fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali

tashkil etishda davlat boshqaruv organi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, davlat idoralari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash imkonini berdi.

Mazkur farmonga asosan, viloyatimizda ham “yo‘l xaritasi”ga muvofiq ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilib, ularning natijasi monitoring qilib borilmoqda.

Davomi 4-betda

Xalqaro anjuman

MAHALLA INSTITUTI BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI ASOSIY TAMOYILIGA HAMOHANG

Samarqandda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” g‘oyasi asosida “Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzusida xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi.

Dunyoning ko‘plab nufuzli tuzilmalari hamda yetmishdan ortiq mamlakat ekspertlarini yagona platformada birlashtirgan tadbir o‘zini o‘zi boshqarish, kambag‘allikni qisqartirish, yoshlar siyosati, ijtimoiy himoya, mahallada tadbirkorlikni keng joriy etish kabi yo‘nalishlarda O‘zbekiston va jahondagi eng ilg‘or tajribalar o‘rganildi.

Tadbir doirasida qator mahallalarga bo‘rib, mahallabay tizim bo‘yicha qilinayotgan ishlar, “mahalla yettilligi” hayotga tatbiq etayotgan loyihalar bilan tanishildi. Ishtirokchilardan ba’zilarining fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

Davomi 2-betda

BUGUNNING MUHANDISLARI

ilm-fan va ishlab chiqarish drayveriga aylanadi

Bugun dunyoda texnologiyalar, texnik tizimlar murakkablashmoqda. Shu bilan birga, ularning iqtisodiyot va jamiyat rivojidadagi o‘rni ham kuchayib bormoqda. Jahon ilm-fani taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilayptimi, demak, har bir davlat shunga monand rivojlanishi kerak. Shuning uchun ham muhandislik ta‘limi sifatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Sohada kadrlar tayyorlash o‘zani zamonaviy talablarga yo‘naltirilib, muhandislik ta‘limini modernizatsiya qilish dolzarb masalalar qatoriga chiqdi.




“Raqobat kuchayib boryapti”, degan jumlani ko‘p ko‘llaymiz. Aytishga oson, lekin uning zamirida ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga muvaffaqiyatli tatbiq etishdek vazifa yotadi. Sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimizning drayver sohasiga aylanib borayotganidan ochilayotgan yangi ish o‘rinlari mehnat bozorida zamonaviy texnologik jarayonlarni boshqarishga qodir muhandislar tayyorlashni talab qilishini anglash mumkin.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti texnologiyalar va innovatsiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu yo‘nalishdagi eng muhim vazifalardan biri zamonaviy muhandislik texnologiyalariga doir bilimlarni puxta egallagan, ilm-fan va texnikaning so‘nggi yutuqlaridan xabardor, qisqasi, yuqori malakali muhandislar tayyorlashdir.

Davomi 5-betda





Ayni paytda mamlakatimiz va xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim siyosiy voqe'lik — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligi uchun shu yil 27-oktabrda bo'lib o'tadigan saylov doirasida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti qizg'in pallaga kirdi.

ERKIN, DEMOKRATIK SAYLOVLARNI DEBATLARSIZ TASAVVUR QILIB BO'LMAYDI



Joriy yil 22-sentabrda boshlangan saylovoldi tashviqotida poytaxtimizda tashkil etilgan "Debat Xoll" media markazi ham muhim o'rin egallaydi. Binobarin, markaz saylovda ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar vakillari o'rtasida o'zaro fikr almashish, Saylovoldi dasturlarida ilgari surilgan tashabbuslarni tahlil va tanqid qilish uchun maxsus platforma vazifasini o'tayapti. Boshqacha aytganda, raqobatchilar o'rtasida ochiq siyosiy munozara va debatlar o'tkazish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Jumladan, navbatdagi teledebatda ham siyosiy partiyalar vakillari Saylovoldi dasturlaridan kelib chiqib, mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlash masalalariga doir dolzarb taklif va tashabbuslarini muhokama qildi.

"Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish" mavzusiga bag'ishlangan munozara avvalida saylovni yuqori darajada tashkil etish, shu jumladan, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar o'rtasida bahs-

munozaralar o'tkazishda teledebatlarning o'miga e'tibor qaratildi.

— 27-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlarga deputatlik saylovlari uchun teledebatlar juda muhim bahs-munozara maydonidir, — dedi Milliy media birlashmasi raisi Sherzodxon Qudratxo'ja. — Erkin, demokratik saylovlarni debatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'tgan teledebatda siyosiy partiyalarning raislarini taklif qildik va bosh mavzu sifatida odamlar

uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarni tahlil qilgan edik. Bugun esa har qanday davlatning asosini belgilab beruvchi — davlat boshqaruvini takomillashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlash masalalarini muhokama qilamiz. Zero, inson manfaatlarini ta'minlash, uning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish hamisha birlamchi vazifa va maqsad bo'lishi kerak.

Bu yilgi saylovoldi tashviqoti jarayoni xalqchilligi, jamoatchilik bilan uzviy aloqalarning ancha rivojlangani jihatidan yanada ahamiyatli bo'lyapti. Buning in'ikosi to'g'ridan to'g'ri jonli efrida uzatilayotgani mazkur teledebat jarayonlarida ham yaqqol sezilmoqda.

Jumladan, debatning 1-raundida partiyalarning Saylovoldi dasturi qisqacha taqdimot qilindi. 2-raundda aholini tashvishlantirayotgan masalalar bo'yicha jamoatchilik faollari va saylovchilarning savollarga spikerlar javob berdi.

Savollarga partiya vakillarining javobi aniq mexanizmlarga asoslangani, har tomonlama puxta o'ylangani bilan diqqatni jalb qiladi.

3-raundda partiyalar o'rtasida qarama-qarshi savol-javoblar asosida bahs o'tkazildi. So'nggi 4-raundda esa spikerlar saylovchilarga murojaat yo'lladi.

Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Matlubaxon TILLAVOLDIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU professori, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

► Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, bu yilgi saylov avvalgilaridan ancha farq qiladi. Mana shu siyosiy jarayon ishtirokchisi — saylovchi o'laroq men bu ijobiy o'zgarishlarni quyidagi jihatlarida ko'raman.

Birinchidan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi ilk bor mamlakatimizda aralash saylov tizimi asosida bo'lib o'tadi. Albatta, bu tizimning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy afzalliklari haqida ommaviy axborot vositalarida ko'p aytiladi. Shunday bo'lsa-da, aralash tizim asosida bo'lib o'tadigan saylovning avvalgilaridan eng asosiy farqli jihatiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Demak, avvalgi saylovlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 150 nafar deputatni majoritar tizim asosida, ya'ni saylovchilar o'zlariga maqbul nomzodlarga ovoz berishi yo'li bilan saylagan bo'lsak, bu safar 75 nafarini shu tartibda saylaymiz. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining qolgan yarmini esa proporsional tizim, boshqacha



aytganda, siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylaymiz. Bir saylovda ikki saylov shaklidan foydalanish aralash saylov tizimini vujudga keltiradi.

Biz xalqimiz hayoti farovonligi, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim mazkur siyosiy jarayonning yana bir ahamiyatli jihatiga to'xtalmoqchimiz. Gap shundaki, bu galgi saylovoldi tashviqotida yoshlarga alohida e'tibor qaratilyapti va o'z navbatida, yoshlarimizning faolligi ko'zga tashlamoqda. Xo'sh, bu nimasi bilan muhim deyishingiz mumkin.

Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotiga ko'ra, ushbu saylovda 700 mingga yaqin yosh birinchi marta ovoz berish huquqidan foydalanadi. Bu masala shunisi bilan ahamiyatli, hech qaysi bir zamon yoki makonda jamiyat hayotiga yangi bir tizimni tatbiq etish oson kechmagan. Chunki inson tabiati shunday: o'zi o'rgangan, moslashgan muhitni uncha-munchaga o'zgartirgisi kelmaydi.

Yoshlarning jamiyat hayotiga daxldorligi va milliy taraqqiyotimizda tutgan o'rni hamisha muhim bo'lib kelgan. Keyingi yillarda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilayotgani, yigit-qizlarimiz har taraflama qo'llab-quvvatlanayotgani, ularga keng imkoniyatlar, imtiyozlar berilayotgani zamidra ana shu haqiqat mohiyati turibdi.

Biz aytayotgan yangilik ularning hayotini yaxshilashga xizmat qilishini jamiyat nuqtayi nazaridan ko'pchilikka tushuntirish va ommalashtirish esa vaqt talab etadigan jarayon.

Shu ma'noda, yoshlarning hal qiluvchi kuch ekanidan kelib chiqilsa, bu tabiiy zarurat hamdir. Xalqimizda "Qovun qovundan rang oladi", degan gap bor. Darhaqiqat, shunday. Bugungi tadbirkorlik muhitini qarang, aksariyat yangi va yosh tadbirkorlarimiz aka-ukalari, yon-atrofdagi tanishlari, ustozlaridan ulgi, maslahat, quvvat olib, katta-katta loyihalarga qo'l uryapti. O'z navbatida,

ularga jamiyatimizda havasmandlar qatlami kengaymoqda va pirovardida tadbirkorlik keng rivojlanayapti.

Xuddi shunday, jamiyatda huquqiy madaniyati va yurt taqdiriga daxldorligi yuqori avlodni shakllantirib borish mamlakatni yuksak taraqqiy ettirishning asosiy poydevori bo'ladi.

Yoshlarning jamiyat hayotiga daxldorligi va milliy taraqqiyotimizda tutgan o'rni hamisha muhim bo'lib kelgan. Keyingi yillarda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilayotgani, yigit-qizlarimiz har taraflama qo'llab-quvvatlanayotgani, ularga keng imkoniyatlar, imtiyozlar berilayotgani zamidra ana shu haqiqat mohiyati turibdi.

Saylovdagi ishtiroki orqali yoshlarning faolligi ana shu yuksak e'tiborga munosib javob bo'lishi bilan birga, vatan taqdiri, yurt obodligi, buguni va ertasi uchun daxldorlik hissini oshiradi.

Qolaversa, 20 mingga yaqin yosh bu yilgi saylov komissiyalari faoliyatida

bevosita ishtirok etish orqali ham o'z siyosiy faolligini ifoda etib kelmoqda.

Avvalgi saylovlarga qaraganda bu safar nomzodlar ham ancha yoshargani yuqoridagi fikrimizni to'liq tasdiqlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, davlat hokimiyati vakillik organlari saylovda deputatlikka nomzodlarning 3 ming nafardan ortig'ini yoshlar tashkil etadi.

Umuman, saylovda har bir saylovchining tanlovi muhim. Ayniqsa, saylov va yoshlarning uzviy bog'liq muhimlik jihatlaridan kelib chiqsak, har bir yosh o'z ovozigacha, ya'ni mustaqil tanloviga ega ekani juda quvonarli.

Xalqaro anjuman

► Boshlanishi 1-betda



Ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengaydi

Ozoda PARPIBOYEVA,
Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi

— Xalqaro anjumanda so'zga chiqqan milliy va xalqaro ekspertlarning yurtimizda mahalla instituti faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qilayotgan ishlar haqidagi fikrlari barchamizda katta taassurot qoldirdi. Zero, mahalla davlatchilgimizning noyob qildizi, ijtimoiy davlat tushunchasining aniq qismi, fuqarolik jamiyatining asosiy timsoli bo'lgan bebaho qadriyatdir.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, mahalla shunchaki ijtimoiy institut emas, balki inson kamolotini ta'minlash, jamiyatda o'zaro mehr-oqibat, totuvlik muhitini yaratishda ham muhim o'rin tutadigan maskan. Bugun mahalla tizimidagi keng qamrovli islohotlar barcha yurtdoshimiz qatori xotin-qizlar

bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lyapti.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun yurtimizda ishilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 200 mingdan oshdi, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida ayollar ulushi 46 foizni tashkil etmoqda. Kichik biznes subyektlarining 120 mingdan, xususan, fermer xo'jaliklarining 4 mingdan ortig'ini xotin-qizlar boshqarmoqda. Kelgusi ikki yilda kichik va o'rta biznesda xotin-qizlar ulushini hozirgi 25 foizdan 40 foizga oshirish bo'yicha ulkan maqsad qo'yilgan.

"Ayollar daftari", "Obod mahalla" kabi ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, oilalar daromadini oshirishda katta imkoniyat yaratmoqda.



MAHALLA INSTITUTI

BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI ASOSIY TAMOIYILIGA HAMOHANG

hayoti va faoliyatida ham tub o'zgarishlar yasamoqda. Xususan, "mahalla yetiligi" tizimining yo'lga qo'yilishi, avvalo, ayollarni qiynayotgan muammolarni aniqlash va yechimini topish, qolaversa, opa-singillarimiz

"Mahalla yetiligi" zamonaviy bilimlarni chuqur egallashi lozim

Xurshid OCHILOV,
O'zbekiston mahallalari uyushmasi tizimidagi o'quv-uslubiy markaz direktori

— Mahalla jamiyatimizning tayanch bo'g'inidir. Shu bois, bu tizimni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Jumladan, sohani raqamlashtirish, o'zini o'zi boshqarish organlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar bajarilyapti. Natijada mahalladan turib barcha davlat idorasiga murojaat qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Boshqaruvda yangi yondashuvlar asosida birgalikda ishlaydigan "mahalla yetiligi" faoliyati yo'lga qo'yildi. "Raqamli mahalla" yagona elektron platformasi ishga tushirildi. Tabiiyki, bu o'zgarishlar tizimdagi kadrlar malakasi, bilimi va ko'nikmasini oshirishni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, uyushma tizimida malaka oshirish va mahallalarni metodik ta'minlash o'quv-uslubiy markazi tashkil etildi.

Markazimizda zamonaviy sharoitda mahalla xodimlarining kasbiy bilimi va saviyasiga qo'yilayotgan talablarni hisobga olgan holda malakasini oshirish, davlat va hududiy dasturlarni hamda normativ-huquqiy hujjatlarni sifatli ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. O'tgan qisqa



muddatda hokimliklar huzuridagi mahalla xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha 14 ta o'quv kursi rahbarlari uchun o'quv-seminar o'tkazildi.

Bundan tashqari, mahalla servis kompaniyalari rahbarlari uchun o'quvlar tashkil etildi. Shuningdek, "mahalla yetiligi" a'zolarining bilimi va ko'nikmasini oshirishga qaratilgan, 2024-yilga mo'ljallangan o'quv dasturi hamda onlayn platforma ishlab chiqildi. Bugunga qadar barcha mahalla raislari mana shu o'quv dasturi asosida o'qitildi.

"Mahalla yetiligi" xodimlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadida hududlarda uchrashuvlar, davra subhatlari, targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Mazkur xalqaro anjumanda yurtimiz va xorijda bu yo'nalishda qilinayotgan ishlar, yangi tajribalar bilan tanishdik. O'zaro aloqalarni mustahkamlash bo'yicha fikr almashdik.

Sabine MAHL,
BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori

— 2024-yil 1-iyunda BMTning doimiy vakili sifatida O'zbekistonga keldim va 2012-yildagi so'nggi tashrifimdan keyingi o'zgarishlardan hayratga tushdim. O'zbekistonda inson qadr-qimmatiga katta e'tibor qaratilib, islohotlar markaziga inson omilini qo'ygan holda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Hech kim e'tibordan chetda qolmayapti

BMTning doimiy vakili sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi mahallalarda bo'lib, buning yaqqol guvohi bo'ldim. Jumladan, BMTning Qoraqalpog'istonda, xususan, Mo'ynoq, Qo'ng'iro't, Bo'zatov va Taxtko'pir tumanlaridagi 15 mingdan ortiq odamni toza ichimlik suv va iqlimga chidamli tibbiy xizmat bilan ta'minlashga qo'shgan hissasini ko'rdim.

Qashqadaryodagi Yortepa mahallasida bo'ldim. Bu yerda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) fermer ayollarni issiqxonalar bilan ta'minlab, daromad topish uchun zarur resurs yaratilganiga amin bo'ldim.

Surxondaryodagi Guliston mahallasi Sho'rchi davlat xizmatlari markazidan atigi 3 kilometr uzoqlikda joylashgan.



BMT Taraqqiyot dasturi ko'magida bu yerda mahalliy aholi uchun qulaylik va o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilgan.

Mahalliy hokimiyat vakillari, yoshlar, fermer ayollar, tadbirkorlar va keksalar bilan muloqotga boy o'tgan ushbu safarlar O'zbekiston xalqining matonati va ijobiy ruhiyati haqida chuqur taassurot qoldirdi. BMT Bosh kotibi Antoniu Gutierrez ham O'zbekistonga tashrif chog'ida Toshkent shahridagi Dilbulok mahallasida mahalliy

aholi bilan uchrashib, mahallaning ahamiyatini e'tirof etgan edi.

Jamiyatning yurag bo'lgan mahalla BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy tamoyili bo'lgan "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik" g'oyasini o'zida mujassam etadi. Bu jamiyat birligi va o'zaro qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradi hamda eng zaif qatlamlarning ham imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlaydi. Mahalla xalq va hukumat o'rtasida ko'priq vazifasini bajarib, jamoaviy rivojlanish tashabbuslarini faol ilgari suradi.

BMTning doimiy vakili sifatida O'zbekistonning barcha viloyatiga borishni, BMT faoliyati O'zbekiston xalqining orzu-umidlari va intilishlariga mos kelishini ta'minlash uchun odamlar bilan uchrashishni rejalashtirganman.

Umuman olganda, ushbu xalqaro anjuman yurtimizda mahalla institutini yanada rivojlantirish borasidagi loyihalarni jahon ahliga taqdim etish barobarida, dunyoning turli hududidan kelgan mutaxassislar bilan o'zaro fikr va tajriba almashishda ham muhim omil bo'ldi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 5-oktabr, 2022-son

KUCHLI IJTIMOY SIYOSAT — XALQ FAROVONLIGI KAFOLATI

“Adolat” SDPning “Teng imkoniyatlar va adolatli jamiyat sari!” deb nomlangan yangi Saylovoldi dasturida kelgusi besh yillikda partiya oldida turgan ustuvor vazifa sifatida jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish belgilangan.

Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va bu yo‘nalishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida dasturda “Ijtimoiy davlat — 2030” dasturini ishlab chiqish belgilangan. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib berish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o‘z dasturida **aholi o‘rtasida keskin tabaqalanishning oldini olish**, buning uchun tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa choralarini ko‘rish lozim deb hisoblaydi. Qolaversa, partiya aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning eng muhim yo‘nalishi bo‘lgan **fuqarolarning uy-joyli bo‘lishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini** ro‘yobga chiqarish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratgan.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali daromadi yuqori bo‘lmagan hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan oilalar, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida aholi qattiqroq etayotgan yoshlar va boshqa aholi qatlamlariga ko‘maklashish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda manzillilik va shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan bir qator samarali mexanizmlar joriy qilindi.

Xususan, subsidiyalari uchun ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtirish maqsadida subsidiya xabarnomasining muddati **12 oydan 4 oygacha** qisqartirildi. Shu bilan birga, subsidiyani o‘z vaqtida ishlatmagan shaxslar uchun subsidiya olish uchun qayta murojaat qilish huquqi saqlanib qoldi.

Ammo ushbu jarayonlarda tadbirkorlarning subsidiya asosida uy sotishi bilan bog‘liq holatlardagi byurokratik to‘siqlar hamda raqamlashtirishning keng qo‘llanilmaligi ayrim holatlarda tadbirkorlarni o‘zlari qurgan uylarni subsidiya asosida sotishdan cheklamoqda.

Biz subsidiyalarni faqatgina davlat hisobidan emas, balki qurilish kompaniyalarini ham bu jarayonga jalb qilgan holda amalga oshirishni taklif etmoqdamiz. Xususan, subsidiya asosida uy-joy qurish va sotishni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari berish, yer maydonlari ajratishda ustuvorlik berish kabi mexanizmlar orqali bunga erishish mumkin.

Shu bois, partiya kelgusi besh yillikda subsidiyalarni haqiqatan muhtoj bo‘lgan fuqarolarga o‘zlari tanlagan hududdan uy-joy qurish va sotib olish uchun imtiyozlar ajratish tizimini takomillashtirish, bunda **subsidiya asosida uy sotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga** qaratilgan tashabbuslarni ilgari suradi.

Shu o‘rinda bir mulohazani aytib o‘tmochimam. O‘zbekiston **Xalq demokratik partiyasi** Saylovoldi dasturida hashamatli uy-joylarni barpo etayotgan **qurilish kompaniyalari va tijorat banklari daromadidan majburiy ajratmalar evaziga maxsus jamg‘armalar** tashkil etib, ushbu jamg‘arma hisobidan aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy turar joylar qurish taklif etilgan.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda qurilish va bank sohalarida qonunchilik normalarining takomillashtirilishi, raqobat muhitining yaratilganligi minglab insonlarni o‘z uylariga ega bo‘lishlarida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. O‘zbekiston **Xalq demokratik partiyasi**ning ushbu tashabbusi amalga oshiriladigan bo‘lsa, so‘nggi yillarda endi oyoqqa turayotgan qurilish sohasi rivojlanishiga **salbiy ta‘sir qilib** va **sohada raqobat muhitining buzilishiga** olib kelishi mumkin.

Ma‘lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta‘minlanishi hamda xususiy mulk daxlsiz bo‘lib, mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.

Biroq so‘nggi vaqtlarda renovatsiya jarayonlariga oid qabul qilingan ayrim qarorlar orqali aholi yashab kelayotgan turar joy binolari va boshqa ijtimoiy obyektlarni buzish va qayta qurish bilan bog‘liq salbiy holatlar

kuzatilmoqda. Bu esa fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy huquqi bo‘lmish uy-joyli bo‘lish, mulkdor bo‘lish huquqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxl qiladi.

Partiya uy-joy bilan bog‘liq bunday loyihalar mustahkam qonuniy asosga tayanishi, uy-joy mulkdorlarining huquq va manfaatlari renovatsiyaning har bir bosqichida qonun bilan ishonchli himoya qilingandagina samarali amalga oshirilishini hisobga olib, yangi Saylovoldi dasturida **renovatsiya-ga doir qonunni** ishlab chiqish, uni amalga oshirishning qat‘iy talab va tartiblari, uy-joy mulkdorlari huquqlariga rioya etish kafolatlari bo‘lmaguncha bunday loyihalarni amalga oshirmaslik taklifi ilgari surilgan.

IJTIMOY OBYEKTLAR FAQAT XALQNIKI BO‘LISHI KERAK

Partiyaning 2025-2029-yillarda mo‘ljallangan Saylovoldi dasturida **jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirishga** qaratilgan ijtimoiy yo‘nalishdagi tashabbuslar aks ettirilgan. Shu bilan birga, dasturda boshlangan xalqchil islohotlarni uzviy davom ettirish, bugungi globallashuv jarayonlaridan kelib chiqqan holda ham vazifa va maqsadlar belgilangan.

Tahillarga ko‘ra, hozirgi kunga qadar Respublika bo‘yicha **184 ta istirohat bog‘larida** daraxtzorlar hududlari kamaytirilib, **944 ta** bino-inshoot qurilgan, **18 ta** istirohat bog‘ida **91 ta** noqonuniy qurilma mavjud ekanligi aniqlangan, **98 tasida 1248 ta** atraksionlar noqonuniy o‘rnatilgani kuzatilgan.

Qolaversa, istirohat bog‘larining yerlarini mahalliy hokimiyat zaxirasiga olish va keyinchalik xususiyashtirish yoki begonalashtirish amaliyoti kuzatilmoqda.

Shu bois, partiya dasturida **istirohat bog‘lari, bolalar oromgohlari, sayilgohlar, ta‘lim va tibbiyotga** oid davlat obyektlari va ularning hududlarini **sotish, xususiyashtirish yoki begonalashtirishni taqiqlash**, bunday harakatlar uchun **javobgarlik belgilashni** taklif qilgan.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, ba‘zi holatlarda ayrim siyosiy partiya tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar qanchalik jozibador bo‘lmasin, chuqur tahlil va asosga ega bo‘lmagani uchun saylovchilar fikrini chalg‘itishi mumkin.

Misol uchun, Ekologik partiyaning 2030-yildan poytaxt va yirik shaharlarda ichki yonuv dvigatelli yengil avtomobillar harakatini, 2035-yildan esa mamlakatda ularning sotilishini taqiqlash tashabbusini olaylik.

Bugungi kunda mamlakatimizda 4 milliondan ortiq avtomobil mavjud. Partiya ushbu tashabbusi amalga oshsa, bu mashinalarning taqdiri nima bo‘lishi, qanday qilib 2030-yildan poytaxt va yirik shaharlarda ichki yonuv dvigatelli yengil avtomobillar harakatini taqiqlash va avtomobil sanoati mamlakatimizdagi elektromobillarga bo‘lgan talabni qondira oladimi, bunda aholi daromadining va mamlakatdagi infratuzilmaning bunga tayyorlik holati aniq tahlil qilinmagan.

Saylovoldi dasturimizda mamlakatimiz aholisiga qulaylik yaratishga qaratilgan bir qator takliflar ham o‘rin olgan.

Partiya mamlakatimizning chekka hududlari va kichik shaharlarning rivojlanishini jadallashtirish, hududlar va poytaxt orasidagi keskin iqtisodiy va ijtimoiy tafovutga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida **shahar va qishloqlarimizda aholi istiqomat qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada kengaytirishni** dolzarb vazifa deb biladi.

Shuningdek, partiya yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, shaharlar markazlarida tirbandliklar va boshqa ko‘ngilsiz oqibatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida **piyodalar uchun yer usti o‘tkazgichlar**

qurishni qo‘llab-quvvatlash, aholining vaqtini tejash, manziliga o‘z vaqtida yetib borishini ta‘minlash maqsadida **jamoat transportlari qatnovini tartibga solish** va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish borasida amaliy ishlarni hayotga tatbiq etishni maqsad qilgan.

YOSH MUTAXASSISLARNI KAFOLATLANGAN BIRINCHI ISH JOYI BILAN TA‘MINLAYMIZ

Partiya o‘z dasturida **fuqarolarni ish bilan ta‘minlash, xodimlarning mehnat huquqlari muhofazasini kuchaytirishga** qaratilgan bir qator dolzarb bo‘lgan takliflarni ilgari surmoqda.

Bilamizki, bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini ta‘minlashda zamonaviy talablarga javob beruvchi professional kadrlarning o‘rni yuqori. Shu bois, so‘nggi yillarda ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.



Partiyamiz dasturida malakali kadrlar tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada salmoqli ishlar olib borilayotgani barobarida muayyan kamchiliklar ham yo‘q emas. Shu bois, partiya oliy va professional ta‘lim muassasalari bitiruvchilari uchun **“Kafolatlangan birinchi ish joyi” loyihasini** amalga oshirishni taklif qilmoqda.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi oliy ta‘lim bitiruvchilarini ishga joylashtirishga ixtisoslashgan va barcha uchun qulay bo‘lgan, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha aniq tartiblar va huquqiy asoslarga ega, talabalar joylashishi mumkin bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasi (yagona platforma) yaratish maqsad qilingan. Bu ayni vaqtda ish beruvchini yosh kadrlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Eng muhimi, yigit-qizlar o‘z ish joylariga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta‘minlashda yollanma ishchilarning ish beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarida qonunlarga rioya qilinishini ta‘minlaydigan va mehnat mojaroalarining oldini oladigan samarali mexanizmlarni joriy qilish maqsadida O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi **yollanma ishchi fuqarolarning huquqlari himoyasini kuchaytirish, yollanib ishlagan davri ularning mehnati ish stajiga qo‘shilishini belgilash** tartibini joriy qilishni taklif etmoqda.

Tahillarga ko‘ra, hozirda mamlakatimizda turli xil sektorlarda mehnat qilayotgan ishchilarning 60 foizi yollanma ishchilar hisoblanadi. Partiya tashabbusini amalga oshirilishi orqali minglab aholining ijtimoiy

ADOLAT

SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Partiya dasturida istirohat bog‘lari, bolalar oromgohlari, sayilgohlar, ta‘lim va tibbiyotga oid davlat obyektlari va ularning hududlarini sotish, xususiyashtirish yoki begonalashtirishni taqiqlash, bunday harakatlar uchun javobgarlik belgilashni taklif qilgan.

himoyasi ta‘minlanishiga, qolaversa, soliq tushumlarida muayyan iqtisodiy o‘sishga erishishga xizmat qiladi.

TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARNI DAVOM ETTIRISH — USTUVOR VAZIFA

Shubhasiz, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor davlat barpo etishda, birinchi navbatda, ta‘lim, ilm-fan va innovatsiyaning ahamiyati juda katta. Ijtimoiy davlatga xos bunday yondashuv, ya‘ni **ta‘lim sohasi bo‘yicha**

va rag‘batlantirish bundan keyin ham doimiy diqqat-e‘tiborimizda bo‘ladi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ta‘limning har bir bosqichida aholining barcha qatlami uchun teng imkoniyat va sharoit yaratib berish, oliy ta‘lim tizimida imtiyozlarni bekor qilish tashabbusini ilgari surib keladi.

Shu bois, “Adolat” partiyasi **“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi**ning “Yangi avlod tarbiyachi va pedagoglarini tayyorlash Davlat dasturi”ni qabul qilish, shuningdek, **pedagogikaga layoqati bor maktab bitiruvchilarini saralash va davlat buyurtmasi asosida o‘qishini tashkil etish** tashabbusi oliy ta‘limga qabul qilish

xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularning huquqlarini kafolatlashni, shu bilan birga, **olis va chekka hududlardagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda** tor soha mutaxassislari faoliyatini yo‘lga qo‘yishni taklif qilmoqda.

Jumladan, dasturda **“aqli tibbiyot” tizimini** shakllantirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqib, **tibbiyot sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni** kengaytirish g‘oyasi ilgari surilayapti.

Bunday samarali tibbiy tizim hamda tibbiyot xodimlarini qonun yo‘li bilan har tomonlama himoya qilish jahonning qator rivojlangan davlatlarida, jumladan, Germaniya, Fransiya, AQSH va Isroilda amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Qolaversa, partiya **“aqli tibbiyot” tizimi** bilan bir qatorda **“elektron poliklinika” va “yagona elektron anketa”** tizimlarini yo‘lga qo‘yish, **tibbiyot daromad olish manbaiga aylanib qolmasligi** uchun nodavlat tibbiyot tashkilotlarini **“tijorat tashkiloti”dan notijorat tashkilotiga o‘tkazish** tarafdori.

Hozirgi kunda respublikamizda ko‘plab nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Biroq ularning tadbirkorlik subyekti, ya‘ni tijorat tashkiloti sifatida ro‘yxatga olinganligi, bir tomondan, ayrim nodavlat tibbiyot tashkilotlarida inson salomatligini asrashdan ko‘ra daromad topishning ustun qo‘yilishiga olib kelmoqda. Ikkinchi tomondan esa ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga o‘zginlik qilmoqda.

Shu bois, partiya nodavlat tibbiyot tashkilotlarining alohida huquqiy maqomini qonunda belgilab qo‘yishni, ya‘ni ularni **“tijorat tashkilotidan” notijorat tashkilotiga o‘tkazishni** taklif qilmoqda.

Bu esa mazkur tibbiyot tashkilotlari faoliyati ustidan ularning moliyaviy xo‘jalik faoliyatiga aralashmagan holda jamoatchilik nazorati tartibida o‘rganish, ularning daromad olish manbaiga aylanib qolmasliklarini ta‘minlash imkonini beradi.

Shuningdek, partiya o‘z dasturida farmatsevtika sohasini tartibga solish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni taklif etar ekan, bunday tizim eng birinchi galda **farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlarga hamda dorilar narxining asossiz oshirilishiga** chek qo‘yadi deb hisoblaydi.

Shu bois, partiya farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuv va noqonuniy muloqot, farmatsevtiklarning tibbiyot muassasalariga g‘arazli homiyligini to‘liq taqiqlash, bu kabi harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilash tarafdori.

Shu bilan birga, partiya **dori vositalari va tibbiyot buyumlarining aholiga arzon va qulay bo‘lishini ta‘minlash** maqsadida **dorilarning yagona elektron bazasini shakllantirish** va mamlakat bo‘ylab yaxlit elektron tizimni joriy qilish hamda dori narxlarining sun‘iy oshirilishini oldini olish maqsadida xorijiy tajriba asosida dori vositalarining harakatlanish janjirini kuzatish texnologiyasidan foydalanishni yo‘lga qo‘ymoqchi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi joriy Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatligi uchun bo‘lib o‘tadigan saylovlarda ilgari surayotgan Saylovoldi dasturida yuqoridagi kabi **zamonaviy sotsial-demokratikaning** xalqchil g‘oyalari milliy qadriyatlarimizga uyg‘un ravishda singdirilgan bo‘lib, **jamiyatda adolat, erkinlik, tenglik va birdamlik g‘oyalari**ni hayotga tatbiq etilishi aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston — bizning umumiy uyimiz. Shunday ekan, uning har bir a‘zosi erkin, adolatli, tinch va farovon yashashga haqlidir!

Teng imkoniyatlar va adolatli jamiyat sari!

Muhammad VALIYEV,
Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi
deputatlari



O‘ZBEKISTON “ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMIGA RIOYA ETISH ISHIMIZDA UNUM VA SIFAT BO'LISHINI TA'MINLAYDI



Ulug'bek QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati hokimi

Boshlanishi 1-betda

Zero, mamlakat taraqqiyoti, rivojlanish va yangilanishlar jarayonida hayotga tatbiq etilayotgan har bir hujjatda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash doimo muhim.

Barcha sohalaridagi keng qamrovli islohotlar natijasini har bir mahalla va xonadongacha yetkazish, topshiriqlar ijrosini ta'minlash, "fuqarobay" ishlash tizimini joriy etib, ularning hayotda o'z o'rnini topishi, daromad manbaiga ega bo'lib, jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirish orqali aholini kambag'allikdan chiqarishni hududdagi har bir mas'ul rahbar birinchi galdagi vazifasiga aylantiril olgan.

Murojaatlar manzilli hal etilmoqda

Bugungi kunda inson qadri tobora yuksalib, aholining barcha yo'nalishlardagi taklif va tashabbuslari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy masalalardagi izchil islohotlar fikrimiz tasdig'idir.

Yana bir muhim jihatga alohida e'tibor qaratsak. Fuqarolarning dardiga quloq tutish, muammo va masalalarini hal etishni eng muhim vazifa deb bilgan holda bugungi kunga qadar aholi bilan joylarda 17 marotaba ommaviy sayyor qabul, 1 marotaba "Xalq bilan muloqot" teleko'rsatuvi orqali murojaat qilgan 4421 fuqaroning 4600 dan ortiq muammosi tinglanib, 3271 tasi ijobiy hal qilindi.

Bundan tashqari, o'tkazilgan sayyor qabullarda aholi murojaatlari asosida ichki yo'llarga tosh-shag'al va asfalt yotqizish uchun 10 milliard 154 million so'm ajratildi.

Aholining tizimli muammolarini aniqlashda ommaviy axborot vositalari, jumalist va bloggerlar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Natijada ulardan 1200 dan ziyod murojaat va muammoli masala kelib tushgan. Ular ijobiy hal etilib, aholi roziligi ta'minlanmoqda.

Aholi bandligi — farovonlik omili

Aholi bandligi ta'minlansa, real daromadlari ortib, oilalar farovonligi oshadi. Viloyatda joriy yilning yanvar-avgust oylarida 273,7 mingta yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan holda,

amalda 315,3 mingta ish o'rni ochildi.

Bu boradagi ishlarni yanada jonlantirib, yil yakuniga qadar birgina savdo va xizmat ko'rsatish sohasida 80,5 ming kishining bandligini ta'minlashni maqsad qilganmiz.

Viloyatda mehnatga layoqatli birotta ham ishsiz fuqaro bo'lmasligi, har bir oilaning turmushi obod, real daromadlari yuqori bo'lishini maqsad qilgan holda harakat qilishimiz zarur.

Surxondaryoda "Sayxunobod tajribasi"

Izchil islohotlarning uzviy davomi sifatida viloyatda "Sayxunobod tajribasi" asosida aholi bandligi ta'minlanib, tadbirkorlikka jalb etilmoqda. Tijorat banklari ishtirokida har bir mahallaning ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, biznes-rejalar ishlab chiqilyapti va hayotga tatbiq qilinmoqda.

Vohamizning har bir qarich oltinga teng unumdor yerida tomorqadan yuqori daromad ko'rish va qishloq xo'jaligidan samarali foydalanib, iqtisodiy salohiyatni yanada oshirish ustuvor vazifalarimizdan biridir. Mavjud yerlardan samarali foydalanish bilan birga, Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, viloyatda joriy yilda 25 ming 59 gektar yer maydoni o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish belgilangan. Ushbu topshiriqni yil yakuniga qadar to'liq bajaramiz.

Yerni qayta foydalanishga kiritish bo'yicha aniq maqsad va rejalarimiz bor. O'zlashtirilgan hamda qayta foydalanishga kiritilgan yerga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilib, yuqori hosil olish choralari ko'ryapmiz. Xususan, "Pomir



mahalladagi 2,4 mingta xonadonda dorivor o'simliklarni kooperatsiya usulida yetishtirish yo'lga qo'yildi.

482 mingta xonadondagi 49,5 ming gektar tomorqa yerdan samarali foydalanish va yuqori daromad olishni namuna tariqasida tashkil etish bo'yicha har bir mahalladan 5 tadan 7 tagacha, jami 3863 xonadon tanlab olinib, ularga 88,6 milliard so'm kredit ajratildi. O'ylaymanki, bu boradagi ishlarimiz ham ijobiy samara berib, natijasi aholi turmushida, hududning ijobiy ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi.

Investitsiya — taraqqiyot garovi

Hududni har tomonlama rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu, shubhasiz, xorijiy investitsiya jalb qilishdir.

Viloyatda investitsiya dasturi doirasida 91 ta sanoat loyihasi ishga tushirildi. 2024-yilda 625 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirishni reja qilganmiz.

Rejaqa asosan, joriy yilning yanvar-avgust oylarida 494 million dollar o'zlashtirildi. Investitsiyalar hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 2,5 barobar o'sdi. Investitsi-



qurilish" MCHJ bilan birgalikda qiymati 10 million dollarlik, 5000 boshga mo'ljallangan chorvachilik kompleksi qurish va sutni qayta ishlash loyihasi amalga oshirildi. Yaponiyaning "Ark educational systems" kompaniyasi va "Surxon sanoat qurilish" MCHJ hamkorligida esa qiymati 8 million dollarlik O'zbekiston — Yaponiya texnologiya universitetini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishilgan, hozir axborot texnologiyalari va xizmat ko'rsatish kasbhunar kolleji binosini ta'mirlash ishlari boshlab yuborilgan.

Shuningdek, joriy yil yakuniga qadar hududiy investitsiya dasturi doirasida 325 ta investitsiya loyihasini ishga tushirish hisobiga 11 mingta yangi ish o'rni yaratiladi, 168 ta yangi sanoat korxonasini ishga tushiramiz.

Qishloq xo'jaligi rivojlantirish, sanoatdagi ulushimiz ham sezilarli oshmoqda, endi nabit yetishtirilayotgan mahsulot va ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni o'z xaridoriga yetkazish, ya'ni eksport dolzarb masalaga aylanadi. 2024-yilda 360 million dollarlik eksport qilib, bu boradagi ko'rsatkichimizni o'tgan yildagiga nisbatan 154 foiz oshirish niyatidamiz. Birgina joriy yilning yanvar-avgust oylarida 193,9 million dollarlik eksport qilindi.

Korxonalarimiz tomonidan 31 ta davlatga eksport amalga oshirilgan bo'lsa, shundan 90

Xususan, gilam ishlab chiqarish uchun sun'iy tola va lateks yelimi, gipsokarton, koks, infuzion eritmalar, steviya dorivor o'simligini qayta ishlash va qadoqlash, agrobentofos mineral o'g'iti, elektrotexnika, charm, sho'r suvni sanoatda ishlatish uchun filtrlash uskunasini ishlab chiqarish kabi bir qancha import o'rni bosuvchi yangi turdagi mahsulotlar o'zlashtirildi.

"Ma'naviyat sektori"dan so'z ochsak

Davlatimiz rahbari "Ma'naviyat boshqa sohalaridan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", deya nihoyatda muhim va mamlakat taraqqiyoti uchun zarur g'oyani ilgari surib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Qachon hudud obod bo'ladi, qachonki aholi turmushi farovon bo'lib, yurtga daxldorlik hissi



bilan yashab, kelajakka teran nigoh bilan qaray boshlasagina. Qachonki aholining ma'naviyati boy, dunyoqarashi keng, fikri teran bo'lsa. Ana shundagina ko'zlangan natijaga erishish, islohotlarni to'laonli hayotga tatbiq etish ijobiy samara beradi.

Prezidentimiz 2023-yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholini sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan yig'ilishida bergan topshiriq'i ijrosi bo'yicha Surxondaryo viloyatida namuna sifatida "Ma'naviyat sektori" joriy etildi. Bu boradagi tizimli ishlar natijasida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishi tamomila yangicha ko'rinish kasb etib, sohada sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, viloyatdagi 965 ta maktab, 454 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 7 ta oliy ta'lim, 54 ta professional ta'lim muassasasi, 360 ta tashkilot va korxona hamda 724 ta mahallada jami 2564 ta "Ma'naviyat sektori" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Kitobxonlikni targ'ib qilish, aholining g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan mediatarg'ibot makonini yaratish maqsadida 1011 ta targ'ibot-tashviqot materiali tayyorlandi.

O'ylaymanki, ma'naviyat, ziyo ulashishdek muhim tashabbuslarimiz hamda amaliy harakatlarimiz xalqimiz turmushida, farazdalarimiz kelajagida o'z so'zini aytadi.

Tibbiyotda "tesha tegmagan" islohotlar

Aholi salomatligini ta'minlash, eng so'nggi tajriba va texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish ustuvor vazifamiz sanaladi. Negaki xalqimiz salomat bo'lsa, ishimizda unum va baraka, rivojlanish bo'laveradi. Ayni shu maqsadda aholiga ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini oshirish hamda kasalliklarni viloyatimizning o'zida davolashni tashkil etishga asosiy e'tibor qaratmoqdamiz.

Prezidentimizning viloyatimizga tashrfi davomida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tizimni takomillashtirish, surunkali kasalligi mavjud bemorlarni sog'lomlashtirish, patronaj tizimini yangi bosqichda amalga oshirish borasida "Surxondaryo tajribasi"ni joriy etish va namuna sifatida Angor tumanida amalga oshirilgan ishlarni viloyatning barcha tumanlariga joriy etish vazifasi yuklatilgan edi. Hozirgi kunda Angor tumanida yaratilgan tizim viloyatning boshqa tumanlarida ham joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, joriy yilda viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi negizida 300 o'rinli davolash va 450 o'rinli o'quv xonalarga ega barcha yuqori texnologiya hamda mutaxassislarni o'zida mujassamlashtirgan tibbiyot klasteri tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, yil yakuniga qadar 30 ta tibbiyot muassasasi ta'mirlanadi, 50 ta zamonaviy tez tibbiy yordam mashinasi keltiriladi, 140 milliard so'mlik zamonaviy tibbiy asbob va jihozlar olinib, aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi yaxshilanadi.

Xususan, viloyatda yil boshidan 10 ta oilaviy shifokorlik va oilaviy poliklinikada ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda investitsiya dasturi doirasida 5 ta birlamchi muassasada rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda va yaqin kunlarda foydalanishga topshiriladi.

Shuningdek, 3,1 milliard so'mlik tibbiy jihozlar keltirildi, bundan tashqari, 96 ta oilaviy poliklinika fizioterapevtik apparatlar bilan

Surxondaryoda yangi imkoniyatlar ishga solinib, ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zimizda mavjud resurslardan aniq rejalar asosida samarali foydalanib, elimizga manfaat keltiradigan katta natijalar sari intilyapmiz. Ishonamanki, birgalikda oldimizda turgan yangi marralarni, albatta, zabt etamiz.

yalarning 30 foizi yoki 149,9 million dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va 70 foizi xorijiy kreditdir. Yil yakuniga qadar 131 million dollar xorijiy investitsiya va kredit o'zlashtirilib, belgilangan rejani to'liq bajarish choralari ko'rildi.

Joriy yilning o'zida viloyatda 10 ta xorijiy davlatning rasmiy vakillari hamda tadbirkorlari bilan 67 marotaba ikki tomonlama muzokaralar o'tkazilib, 4,7 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Birgina misol, Xitoyning "Pover Uhuru Share Limited" kompaniyasi bilan Angor tumani "Bahor" MFY hududida "Top quality Brand" MCHJ hamkorligida jelatin ishlab chiqarish uchun qiymati 20 million dollarga teng loyiha amalga oshirildi. Loyiha uchun yer tanlanib, qurilishi boshlab yuborildi, uskunalari olib kelish bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar o'tkazilmoqda.

Vengriyaning "Bankonzult Kft." kompaniyasi hamda "Surxon sanoat

foizi 5 ta davlat — Rossiya, Pokiston, Xitoy, Afg'oniston va Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, Malayziya, Peru, Singapur, Kuvayt, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bozorlariga mahsulotlarimiz kirib borishi hisobiga jami 149,3 ming dollarlik ipkalava, gilos, shaftoli mahsulotlarini eksport qildik. Viloyatimizdagi 165 ta korxona eksport faoliyatini amalga oshirgan bo'lsa, shundan 55 tasi sanoat, 110 tasi meva-sabzavot korxonasidir.

Ushbu korxonalar tomonidan bir martalik tibbiyot shprislari, tibbiyot mazlari, avtomobil moylari, qurilish materiallari, dekorativ oynalar, suv inshootlari uchun ehtiyot qismlar, olovga bardoshli g'ishtlar, qamish qirindisidan DSP, neft-gaz korxonalari uchun mash'ala qurilmasi va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. 2024-yil yakunigacha 39 ta loyiha doirasida 252,9 milliard so'mlik import o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish rejalaritirilgan.





Ta'lim taraqqiyoti

Olimjon TO'YCHIYEV,
texnika fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

2023-yili o'tkazilgan so'rovnoma maktab bitiruvchilarining atigi 8 foiz shu muhandislik yo'nalishini tanlagan. Oliy ta'limga qamrov 5 barobar, ya'ni 9 foizdan 42 foizga oshgan bir paytda yoshlarning muhandislikka qiziqishidagi bu ko'rsatkich sohaga yangi texnologiyalarni joriy etish zaruratidan darak beradi.

Yurtimizda texnika yo'nalishidagi 36 ta davlat oliy ta'lim muassasasini har yili 67 ming yigit-qiz bitiradi. Biroq ularning 60 foizi o'zi o'qigan yo'nalish bo'yicha ishlamayapti. Sababi, oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturi va ixtisosliklari bugungi ish beruvchilar talabini to'laqonli ta'minlaydigan kadrlarni yetishtirib bermoqayapti. Bugun biz ana shu talablarga javob bermasak, zamonaviy yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'ymasak, sanoat tarmoqlari katta mablag' sarflab, chetdan mutaxassis olib kelishga majbur bo'ladi. Vaholanki, o'zimizda shu yo'nalishda o'qib, "diplomini tokchaga qo'yib qo'ygan"lar talaygina. O'ylab qarasa, o'sha diplomlarning chang bosib yotishida oliy ta'lim muassasalarining ham "hissasi" bor. Sababi, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganida.

Toshkent shahrida 15 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Turin politexnika universitetining asosiy vazifalaridan biri xorijiy



tajribaga asosan yuqori malakali muhandislarni tayyorlashdir. Bu borada universitetda o'quv-amaliy va ishlab chiqarish laboratoriyalari mavjud. Hozir muhandislik sohasi bo'yicha qator yo'nalishlar bor. Talabalar mashinasozlik texnologiyasi, kompyuter muhandisligi, avtomobil muhandisligi, aviakosmik muhandislik, dasturiy ta'minot muhandisligi, qurilish muhandisligi va arxitektura yo'nalishlarida tahsil olib kelmogda.

Bugun global iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bilan birga insoniyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yaqin kelajakda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan holatlar talaygina. Shulardan biri — tabiiy boyliklar va resurslar zaxirasining yildan yilga kamayib, taqchillashib borayotgani. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish uchun ham ilm-fan va innovatsiyalar integratsiyasi zarur.

2024-yil 5-oktabr, 2022-son



BUGUNNING MUHANDISLARI

ilm-fan va ishlab chiqarish
drayveriga aylanadi

loyihalarni amalga oshirish yo'lga qo'yilgan. So'nggi uch yilda umumiy qiymati 11 milliard so'mga yaqin jami 9 ta loyiha amalga oshirildi. Bular orasida Germaniya, Belarus, Turkiya, Xitoy bilan qo'shma ilmiy loyihalar o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda Erasmus dasturi doirasida qit'aning yetakchi universitetlari bilan birga qator loyihalarni amalga oshiryapmiz.

Universitetimizda innovatsion loyihalar bilan mamlakat va jahon miqyosidagi tanlov va ko'rgazmalarda qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritayotgan iqtidorli, innovator talabalar talaygina. Muassasada innovatsion loyihalar bilan shug'ullanuvchi talabalardan iborat "NazarX" va "Cosmos Innovation" jamoalari turli yo'nalishda loyihalarini yo'lga qo'ygan.

Birinci o'zbek robodoktori

Aerokosmik loyihalar bilan mashhur "NazarX" jamoasi hozir uchuvchisiz uchish apparatlari hamda avtopilot rejimida harakatlanadigan avtomobillar ustida tadqiqotlar olib bormogda. Bu borada universitetimiz va Italiyaning Dron Lab kompaniyasi hamda Savdo-sanoat palatasi o'rtasida O'zbekistonda dron ishlab chiqarish bo'yicha strategik hamkorlik shartnomasi imzolandi. Endi aynan shu jamoa ishtirokida xorijiy tajriba asosida

iqtisodiyotning turli sohalari uchun dronlar ishlab chiqariladi.

"Cosmos Innovation" jamoasi tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan navbatdagi loyihalardan biri — birinchi o'zbek robodoktori "Body tester". Loyiha sog'lom turmush tarzini yanada keng targ'ib qilishda yordam beradi. Qurilma bir vaqtning o'zida insonga doir tibbiy ma'lumotlarni aniqlab, chek qog'ozini ko'rinishida taqdim qila oladi. Ma'lumotlar bilan birga taqdim qilingan chekdagi QR-kod orqali har bir foydalanuvchi onlayn tarzda tibbiy ko'rsatkichlarini bilish hamda vazn indeksi bo'yicha tavsiyalar olish imkoniga ega bo'ladi.

Bugun global iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bilan birga insoniyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yaqin kelajakda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan holatlar talaygina. Shulardan biri — tabiiy boyliklar va resurslar zaxirasining yildan yilga kamayib, taqchillashib borayotgani. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish uchun ham ilm-fan va innovatsiyalar integratsiyasi zarur.

Chet elda xizmat safarida bo'lganimizda bir jihat e'tiborimni tortdi. Rivojlangan davlatlarda muhandislar juda qisqa vaqtda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga jalb etiladi. Ular turli mashina va vositalar yaratadi. Bu jarayonda nafaqat o'z ustida ishlaydi, balki mamlakat eksporti aylanmasini oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Chunki ular da texnologiya sohasidagi innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning o'sishini ta'minlovchi katalizatorga aylanib ulgur.

Bugun biz uchun ham kun talabi "tarmoq — korxona — oliyog'li" integratsiyasini yaratishdir. Zamonaviy mashina va uskunalaridan foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish uchun malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Oliy ta'lim muassasasi mana shu talabdan kelib chiqib, kadrlar tayyorlashi lozim. Fan va texnologiya yutuqlari mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, ta'lim tizimini zamon bilan hamnafas tarzda muntazil yangilab, takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga olib keladi.

Elektrotexnika sohasidagi
tadqiqotlar

Oliy ta'limning mavqei zamon talablariga munosib, malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, o'zi tanlagan yo'nalish bo'yicha mahoratli kadrlarni yetishtirish bilan belgilanadi. Bunga esa faqat sifatli ta'lim orqali erishish mumkin. Kadrlar tayyorlashda o'quv jarayonining malaka talablari asosida o'tilishini muntazil monitoring qilish, samaradorligini tahlildan o'tkazib, takomillashtirib borish zarur.

Universitetimiz ta'lim dasturlari ish beruvchi kompaniyalar ehtiyoji hamda talabalar qiziqishi asosida muntazam yangilani, takomillashtirib borilmoqda. Bu jarayon ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalar va bozor talablariga moslashtirish imkonini yanada kengaytiradi.

Hozir bitiruvchilarimizga avtomobilsozlik, mashinasozlik, energetika sanoati, neft va gazni qayta ishlash, axborot texnologiyalari va qurilish kompaniyalarida talab katta. Biz talabgorlarni doim kuzatib, har bir yo'nalishga kirib kelayotgan texnologiyalarni o'rganib borishimiz kerak. Shundagina ish beruvchilar qo'yadigan mezonlarga mos kadr tayyorlay olamiz. Bizni quvontirgani bugun ko'pgina bitiruvchilarimiz yetakchi kompaniyalarda faoliyat yuritmoqda. Italiyaning Manganorobot, Pirelli, Daniyaning Uber, Dubayning VITRONIC Machine Vision Middle East, Germaniyaning "BMW group" kabi kompaniyalarida muhandis, yetakchi mutaxassis bo'lib ishlamoqda.

Universitet huzurida elektromobillar va ularning infratuzilmasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilgan. U yerda elektrda harakatlanadigan transport vositalarini o'rganish va shu yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanish, eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu elektrotexnika sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish va shu yo'nalishlar bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlash imkonini beradi.

Yirik korxonalar rahbarlari bilan suhbatlashganimizda ular amaliyotga borgan talabalarning nazariy bilimlari bilan zamonaviy ishlab chiqarish o'rtasida tafavut borligini aytadi. Bu bizning og'riqli nuqtamiz. Mana shu kamchilikni bartaraf etsak, soha kadrlari "oltin mutaxassis"ga aylanadi. Chunki raqamli iqtisodiyotning asosiy texnologiyalari, raqamli transformatsiya ssenariylari, muhandislik faoliyatining yangi ustuvor yo'nalishlaridir. Demak, kelajak ta'limining asosiy tendensiyalari ham shular bo'ladi.

Yevropa davlatlari o'z istiqbolli dasturlari hamda nazariyalarni shakllantirishda axborot texnologiyalari, texnika jabhasi va turli nou-xaularga tayanmoqda. Zamonaviy sanoat tarmoqlari uchun foydali turli texnologik uskunalar, mashinalar, predmetlarni ishlab chiqishda samaradorlikni oshirib, mahsulot tannarxini minimallashtirish vazifasi oldimizda turgan ekan, bunga sohada kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish orqali erishamiz.

Ta'lim muassasamizda xalqaro aloqalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan. Shu sababli Yevropa, Amerika va Osiyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va kompaniyalari bilan yaqindan hamkorlik qilinadi. Bugun 20 dan ortiq xorijiy davlatning 90 ga yaqin universiteti va kompaniyalari bilan qo'shma ta'lim

loyihalari, sanoat darajasidagi hamkorlik, o'quv va almashinuv dasturlari tashkil etilmoqda.

O'tgan davrda oliygohimiz Xitoy politexnika instituti, Kosovska Mitrovitsadagi Pristina universiteti, Rossiyaning "Transmashholding" korporativ universiteti bilan o'quv va ilmiy sohada keng qamrovli hamkorlik qilish bo'yicha memorandumlar imzolagan. Hamkorlik doirasida talabalar muhandislik faoliyati bo'yicha olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, o'qish yo'nalishiga muvofiq kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida avgust oyida 17 talabamiz Rossiyaning "Transmashholding" AJ tarkibiga kiruvchi "Metrovagonmash" AJ zavodida 10 kunlik amaliyot o'tab keldi.

Joriy yil 24-sentabrda O'zbekiston — Italiya birinchi ta'lim forumi doirasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti huzurida Italiya — O'zbekiston ilg'or muhandislik markazi" ochildi. Ushbu markaz Italiyadagi ilg'or va innovatsion texnologiyalarni uzluksiz joriy etish orqali O'zbekistonda mashinasozlik, qimachilik, charmoslik sohalarida ishlab chiqarish maydonlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbekistonlik mutaxassislarning malakasini oshirish, tajriba loyihalari, ixtisoslashtirilgan ma'lumotlarni tarqatish, ikki davlat xususiy sektorini jalb qilgan holda Italiya — O'zbekiston samoyalari va qo'shma korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma hamda shart-sharoitlar yaratishda muhim omil bo'ladi.

Talabalar markazdagi eng zamonaviy moddiy-texnik bazada amaliyot o'tab, tajribasini oshiradi. Shuningdek, yoshlar eksportpor mahsulotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar bilan shug'ullanish hamda kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2022-yil 20-dekabrda Murojaatnomasida "...Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytiramiz. Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga alohida muhandislik maktablari tashkil qilinadi. Bu tizim bizda hozirgacha bo'lmagan. Lo'nda aytganda, yangi zamon injenerlari tayyorlash tizimini yaratamiz", degan edi.

Kelgusi besh yilda Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining dunyo miqyosidagi o'mini yanada mustahkamlash, nufuzli universitetlarning 1000 taligiga kiritishni rejalashtirganimiz. Hozir talabalarimizning 6 foizi chet ellik yigit-qizlardan iborat. Bular Turkiya, Rossiya, Hindiston, AQSH, Nigeriya, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa qo'shni davlatlardan kelganlardir. Kelgusi rejalarmizdan biri xorijlik talabalar sonini yanada ko'paytirish.

Ta'limga islohotlarning hal qiluvchi kuchi sifatida qarash yaqin kelajakda yangidan yangi ixtirolarga asos bo'ladi. Soha vakili bo'lganim uchun ham ko'p e'tibor beraman: ilgari sanoat dastgohlari, ehtiyot qismlar import qilingan. Endi mana shu mahsulotlarning muhandislik maktablari tayyorlanishiga erishyapmiz. Kecha muhandislar oldiga chet eldan keltirilgan texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish talabini qo'ygan bo'lsak, bugun ular zimmasiga bozor ehtiyojidan kelib chiqib, yangi texnika va texnologiya yaratish vazifasi ham yuklanyapti.



deb bilaman. U qalbmiga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlash bilan birga, zimmamga yanada zalvorli mas'uliyat yukladi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi keng imkoniyatlar, yangilanishlar bizni yanada tashabbuskor, serqirra va fidoyi bo'lishga chorlaydi. Shunday ekan, bundan keyin ham bor bilimimni, shijoatimni kasbinga, tarbiyalanuvchilarga bag'ishlayman.

Sohada tinimsiz mehnat qilyotgan, shu zamin bag'rida kamolga yetib, davlatimiz taraqqiyoti yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan o'qituvchi va murabbiylar faoliyati har qanday maqto, nufuzli mukofotlarga loyiq. Bu ularga yanada xush kayfiyat bag'ishlab, fidokorlikka, mudom olg'a intilishga undaydi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

E'tirof

Bugun jamiyatimizni ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etish qiyin. Yuksalishlarning tamal toshi ilm-fan va ta'limga asoslanadi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda taraqqiyotning muhim asosi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etildi.

KELAJAK BUNYODKORLARI
mehnatidan qadr topib, e'zozlanmoqda

Sohadagi taraqqiyot ko'lami yoshlarimizning xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlarida, zamonaviy bilimlarni egallashga bo'lgan cheksiz intilishlarida namoyon bo'lmoqda. Ana shular timsolida bugun yurtimiz ertasini ta'minlashga qodir avlod o'sib kelayotganini his etishimiz mumkin. Albatta, bu borada hammamiz har doim bosh egib, ta'zim qiladigan, ehtirom ko'rsatadigan o'qituvchi va murabbiylarning o'rni beqiyos.

Prezidentimizning joriy yil 27-sentabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga binoan fidoyi muallimlar munosib taqdirlandi. Ular orasida Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi Olga Stepanova ham bor. Pedagog sohadagi uzoq yillik fidokorona xizmati uchun "Do'stlik" ordeniga munosib ko'riladi.

Olga Stepanova 1992-yil Samarqand davlat universitetini tugatib, faoliyatini Paxtachi tumanidagi 21-maktabda boshlagan. Bugunga qadar mazkur o'quv dargohida yoshlarga bilim berib kelayotir.



— Kasbim ortidan davlatimizning yuksak e'tirofi va e'zoziga sazovor bo'ldim. Butun vujudim va aqlu shuurimni o'qituvchilikka bag'ishlab, kasbimdan baxt va sharaf topdim. Bundan baxtiyorman. Prezidentimizning "Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu — maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch

esa o'qituvchilardir", degan ta'kidni ilm maskanimizdagi ustoz-muallimlarning qalbidan chuqur joy olgan, faoliyatimiz mezoniga aylangan, — deydi muallima. — Yosh avlodning har jihatdan yetuk kamolotini ko'zlab, mamlakatimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Umumta'lim maktablari zamonaviy, ko'rkam qiyofaga keltirilib, eng qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ular so'nggi rusumdagi o'quv jihozlari, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlanyapti. Shunga munosib tarzda bizdan talab qilinadigan izlanish, o'z ustimizda ishlash, kasbiy malaka va mahoratimizni oshirgan holda farzandlarimizni zamonaviy bilimlar egasi qilib tarbiyalashdir.

Tayloq tumanidagi 10-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi Ozoda Vahobova sohada 20 yildan ortiq faoliyat yuritayotgan fidoyi kadrlardan. Bu yilgi 1-oktabr sanasi Ozoda opa uchun qo'shaloq bayram bo'ldi: Prezidentimiz farmoniga ko'ra "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

— Kamtarona xizmatlarim e'tirof etilib, davlat mukofotiga loyiq ko'rilganimdan behad shod bo'ldim, — deydi Ozoda Vahobova. — Bu mukofot sevimli jamoam va o'zimga ilk ustoz sanaganim — onajonimga ham daxldor

